



QADIMGI BAQTRIYA DAVLATI TARIXINING MUSTAQILLIK YILLARIDA TADQIQ ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI

Bo'ronova Zarnigor

Saidova Muharram

Shahrisabz davlat pedagogika

instituti 1 kurs Talabalari

zarnigorburanova@gmail.com

muharramsaidova25@gmail.com

Abstract: This article is about the ancient state of Bactria. In the Bronze Age, a state system emerged in Bactria. Large architectural structures, such as palaces and temples, dating back to this period, have been discovered, and traces of high construction, crafts, and agricultural culture have been identified. By the 9th-8th centuries BC, a political entity of military significance was established in Bactria. This article provides information about the formation, development, and role of the ancient Bactrian state in Central Asia

Key words: Bactria, Bakhdi, Avesta, Yasht Valley, Bactrian people, satrapism, Bess.

Annotatsiya: Ushbu maqola qadimgi Baqtriya davlati haqida. Bronza davrida Baqtriya hududida davlatchilik tuzumi vujudga kelgan. Mazkur davrga oid saroy, ibodatxonalar kabi katta me'morchilik inshootlari topilgan hamda yuksak binokorlik, hunarmandchilik va ziroatchilik madaniyati izlari aniqlangan. Miloddan avvalgi 9-8-asrlarga kelib, Baqtriya tuprog'iga harbiy ahamiyatga ega siyosiy birlashma tashkil topgan. Bu maqolada Qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi, rivojlanishi va O'rta Osiyoda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan



Kalit so'zlar: Baqtriya, Baxdi, Avesto, Yasht vodiysi, Baqtriya xalqi, satrapligi, Bess.

Kirish. O'rta Osiyoning qadimiy davlatlaridan biri Baqtriya bo'lib, uning tarkibiga hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy yerlari kirgan. Baqtriyadagi ko'pdan ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur bo'lib, U mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podshoh qal'asi alohida ajralib turgan. Rim tarixchisi Kursiy Rufning shahodat berishicha, "Baqtra daryosi nomidan shahar viloyatning nomidan kelib chiqqan".Umuman tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko'pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo'ladi. "Baqtriyaliklar", "Baqtriya xalqi" iboralar juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarning birlashtirgan hududiy tushunchalarni anglatadi. "Avesto" kitobda ham Baqtriya "Eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli , go'zal o'lka" sifatida ta'riflangan.

Ktesiy ma'lumoticha, Baqtriyaga qarashli Yasht vodiysi bobi-hayotga mo'l-ko'lligi, unumdor yerlari ko'p bo'lganligi dan bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog'dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkorlar bo'lgan

Miloddan avvalgi 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, uning hududiy chegaralari :Hindikush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib tarqalgan. Baqtriya davlati O'rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo'lgan. Yozma manbalarning dalolat berishicha, Mag'iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan. Baqtriya Amudaryo havzasida ayrim daryo vohalarida joylashgan beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirnihon-Vaxsh, Panj, Ko'cha-Qunduz vohalarida shular jumlasidandir. Surxon vohasining markazi Qiziltepada bo'lgan, Shimoliy



Afg'onistondagi Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Geradod va Ktesiylarning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi edi.

Baqtriyaliklarning dehqonchilik va chorvachilikdagi tajribalari maqtasa arzigulik bo'lgan. Yunon, Xitoy manbalarda yozilishicha, bu yerga dehqonchilik rivojlanib kelgan. Kvint Kursiy Ruf shunday yozadi: "Baqtriya tabiati boy va rang-barangdir. Ba'zi yerlarda ko'plab bog'-rog'lar va uzumzorlar bo'lib, shirin mevalarga to'la. Tuprog'i unumdor joylarda bug'doy ekiladigan, qolgan yerlar esa ayblovlardan iborat.

Hozirgi kunda Baqtriya tuprog'ida miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarimiga oid 240dan ortiq qurol-yaroqlar, qal'a lar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan. Birgina Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashgan, Bandixon, Bo'yrachi, Qizilcha, Obisher, Sho'rtepa kabi yodgorliklari mavjud. Ular mudofaa devorlari va mudofaa burjlari bilan mustahkamlanganini qal'a va qo'rg'onlardir.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlar O'rta Osiyo viloyatlarida ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayot ancha rivojlangan. Bu davrda Baqtriya yirik davlat bo'lib fors podsholarining Sharqidagi yirik mamlakatlarlardan biri edi. Baqtriyaning poytaxti qadimgi Baqtra (hozirgi Balx), shahrida qazish ishlari olib borilib, U yerdan topilgan kulolchilik buyumlari ko'hna shaharning eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi I mingyillikning o'rtalariga oid ekanligidan dalolat bermadi. Bu davrda Baqtriyada badiiy hunarmandchilik ham yuqori darajada bo'lgan. 1877-yilda Kobadiyon bekligi (Tojikiston) dan oltin va kumushdan iborat katta xazina topiladi. "Amudaryo xazinasini" nomi bilan mashhur bo'lgan bu xazinada oltin va kumushdan ishlangan jang aravalar, jangchilar qiyofasi, hayvonlar tasvirlarini uchratish mumkin. Bu xazina miloddan avvalgi V-IV asrlarga oiddir.

Adabiyotlar tahlili. Baqtriyaning qadimgi dunyo tarixida tutgan o'rni, tarixiy geografiyasini ushbu kitoblar orqali o'rganib chiqdik, bular: A. S. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" Toshkent 2020, Ahmadali Asqarov "O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi"



Toshkent "Universitet" 2007, Azamat Ziyov "O'zbek davlatchiligi tarixi" Toshkent 2001, Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova "O'zbekiston tarixi" Toshkent 2016, O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis talabalari uchun darslik) "Yangi asr avlodi" Toshkent 2003. Ushbu adabiyotlardan bilishimiz mumkinki qadimgi Baqtriya davlati juda qadimiy va tarixiy davlatlardan biridir.

Metodologiya. Mazkur maqolada qadimiy davlatlardan biri bo'lgan Baqtriya davlati bir qator manbalar asosida o'rganiladi. Uni o'rganishda arxeologik ma'lumotlarga tayangan holda keng yoritiladi. Baqtriya tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'proq yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar va boshqa tarixiy hujjatlar orqali o'rganilgan. Bu manbalar orqali, Baqtriya madaniyati, dini hayoti va iqtisodiy tizimlari haqida ma'lumotlar to'plangan.

Dolzaribliqi. Qadimgi Baqtriyani boshqargan siyosiy sulolalar to'g'risida hozircha biror - bir ilmiy xulosa qilish qiyin. Shu bilan birga bu boradagi mavjud afsonalardan baqtriyalik hukmdorlar, ularning kuch - qudrati o'z zamonasida mashhur bo'lganligini bilib olish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadimgi Baqtriya davlati o'zining strategik joylashuvi, boy tarixi va madaniyati bilan ajralib turadi. Bu hudud qadimiy sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Baqtriya tarixi davomida ko'plab madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga guvoh bo'lgan, o'z zamonasida juda muhim siyosiy va iqtisodiy markaz bo'lgan. Bu xalqning tarixiga chuqur nazar tashlasak insoniyat uning o'zaro ta'siri va rivojlanishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova "O'zbekiston tarixi" Toshkent "2016
2. A.S.Sagdullayev" O'zbekiston tarixi "Toshkent 2020
3. Azamat Ziyov" O'zbek davlatchiligi tarixi"Toshkent 2001
4. A.Asqarov"O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi"Toshkent 2007
5. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining nomutaxasis talabalari uchun darslik) "Yangi asr avlodi" Toshkent 2003.
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.



13. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.